

# Jahon chempionati kubogi Turinda.

2022 yil 16 may kuni, Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universitetida, "Milan" futbol klubining afsonaviy himoyachisi – Cristian Zakkardo va yosh futbolchilar – "Juventus" futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Shuningdek uchrashuvda Donato Albanese – AC MILAN menejeri va Massimiliano Alesi – BMB-OPERA ZAFFERANO o'zbek-italiya qo'shma korxonasi bosh direktori ham ishtirok etishdi.

Tashrifdan asosiy maqsad, yosh futbolchilar bilan muloqot qilib, ularga master-klass o'tkazish, qiziqtirgan savollariga javob berish va "Juventus" akademiyasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishish.

Tadbir ishtirokchilari maroq bilan futbol o'yinchisi bilan suratlariga tushib, esdalik uchun avtograf olishdi. Uchrashuv yosh futbolchilarda unutilmas taassurotlar qoldirdirgani shubhasiz.

